O‘QUVCHI-YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY-MILLIY TARAQQIYOTI

Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
abdullayevdilshodbek1992@mail.ru
+99897-214-48-08

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchi-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tarixiy-milliy taraqqiyoti bosqichlari, o’quvchilarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va ularning aqliy, axloqiy salohiyatining rivojlanishi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqaro, fuqarolik, vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy-siyosiy faollik, ommaviy madaniyat, iqtisodiy soha, siyosiy soha, ijtimoiy rivojlanish sohasi, ma’naviy-mafkuraviy soha.

ИСТОРИКО-НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПРОГРЕСС РАЗВИТИЯ АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье рассматриваются этапы историко-национального развития активной гражданской позиции у учащейся молодежи, социально-политическая активность учащихся, развитие их психического и нравственного потенциала.

Ключевые слова: гражданин, гражданственность, патриотизм, гражданская позиция, общественно-политическая активность, массовая культура, экономическая сфера, политическая сфера, сфера общественного развития, духовно-идеологическая сфера.

HISTORICAL AND NATIONAL PROGRESS IN THE DEVELOPMENT OF ACTIVE CITIZENSHIP AMONG STUDYING YOUTH

Annotation: The article examines the stages of historical and national development of active citizenship among students, socio-political activity of students, the development of their mental and moral potential.

Keywords: citizen, citizenship, patriotism, civic position, socio-political activity, mass culture, economic sphere, political sphere, sphere of social development, spiritual and ideological sphere.

Mamlakatimizda 2016-yilda «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko‘tarish uchun asos bo‘ldi. Qonunda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonrch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tarkibiga kiritildi[1].

Insoniyat tarixidan ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan barqarorligi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, aqliy va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish zaruriyati yuzaga keldi:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash malakalarini tobora boyitish;

v) huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish, o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

d) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatish;

e) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o‘rgatish va boshqalar[2].

Fuqarolik shaxsning muayyan jamiyatga mansubligini ifodalovchi holat bo‘lib, u turli davrlarda hamda ijtimoiy hayotda etakchi o‘rin tutgan qarashlar nuqtai nazaridan baholab kelingan. Ijtimoiy tuzumning eng yuqori shakli bo‘lgan huquqiy jamiyatda fuqarolik shaxs qadr-qimmatini ta’minlash, uning sha’ni, or-nomusi va haq-huquqlarini himoyalanishining huquqiy kafolati sanaladi.

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq yillik milliy taraqqiyot tarixiga ega millat hisoblanadi. O‘tmishda ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz, ma’rifat sohiblari millat taqdiri va kelajagini ozodlik, erkinlikda deb bilganlar, Vatan va xalq istiqboli, baxtiyor turmush kechirish uchun fidoyi bo‘lish, jipslashish zarur deb hisoblaganlar.

Tadqiqotimizda yosh avlodda fuqarolik tarbiyasining turli tarixiy davrlardagi o‘ziga xosligi, mazmuni, shakllariga yondashuvni tahlil qilish zarur deb hisobladik.

1-jadval

Tarixiy davr bosqichlari	Yoshlarda vatanparvarlik va fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish g‘oyalari va ta’lim-tarbiya jaryoni
VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davr	Islom dinida vatanparvalik g‘oyasi. Buyuk muhaddislarning merosi. Sharq Uyg‘onish davrida etuk inson muammosining talqin etilishi.
XIV-XVI asrlar	Sohibqiron Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida Vatanga sadoqat, uni asrash va vatanparvarlik g‘oyalari

XVII-XVIII asrlarda va XIX asrning birinchi yarmi	Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari davrida maktab, fan, ta’lim va madaniyat taraqqiyoti
XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari	Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Jadadchilik ma’rifati g‘oyalarida Vatan taraqqiyoti masalalari. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidjon o‘g‘lining jadidchilik faoliyati.
Sho‘ro hokimiyatining dastlabki yillari	Turkistonda maorif tizimining tashkil etilishi. Ishoqxon Ibrat, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari
Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillar	Urush yillarida o‘zbek xalqining front va front ortidagi qahramonliklari. Turli millat vakillarining O‘zbekistonda boshpana topishi.
XX asrning II yarmidan 80-90 yillargacha bo‘lgan davr	Sobiq Sho‘rolar davrida pedagogik g‘oyalar, qayta qurishning axloqiy va g‘oyaviy-siyosiy negizlari.
XX asrning 90-yillaridan XXI asr boshlari, 2016 yilgacha bo‘lgan davr	O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining e’lon qilinishi, milliy g‘oya va milliy mafkuraning yaratilishi va targ‘iboti. Yoshlarni turli tahdidlardan himoyalash maqsadida g‘oyaviy immunitetni shakllantirish masallari.
2016-2022 yillar	Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirilishi. O‘quvchi-yoshlarda jamiyat taraqqiyoti uchun dahldorlik tuyg‘usining shakllantirish chora-tadbirlari va uni amalga oshirish mexanizmining ishlab chiqilishi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi muvofiq umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsad va vazifalarining belgilanishi.

Yosh avlodda fuqarolik his-tuyg‘usini shakllantirishning negizi Vatanga muhabbat vatanparvarlikni tarbiyalashdan boshlanadi.

Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Bu tuyg‘u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish, shaklida mujassamlashgan bo‘ladi. Insonda milliy ong va g‘urur, Vatanparvarlik bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki, millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg‘ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir.

Vatanparvarlik – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi shaxs vatanparvarlik tuyg‘usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qiladi, chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg‘udir[3].

Vatanparvarlik yuksak ma’naviy-axloqiy fazilat sanaladi va u ota-bobolardan meros qolgan Vatanni sevish, ardoqlash, urf-oatlar, qadriyatlarni e’zozlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan halol mehnat qilish, Vatanni himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido qilishda namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlikning chinakam ko‘rinishi fidoyilikdir. Fidoyilik Vatanga bo‘lgan sadoqat va muhabbatning ifodasi bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyoti, fuqarolarning farovon hayotga erishishi uchun mehnat qilish va izlanishni talab qiladi. Inson qaerda yashashi, qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishdan qat’i nazar vatanparvarlik tuyg‘usining qay darajada shakllanganligini namoyon qiladi. Bu milliy urf-odat va an’analarga hurmat, Ona-tabiatni asrab-avaylash, atrofdagilarga insonparvarlik bilan munosabatda bo‘lish kabilarda ifodalanadi.

Vatan (arabcha «vatan» - Ona yurt) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati[4]. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo‘lgan tushunchadir. Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o‘zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib borgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashagan joy o‘sha qabilaning vatani sanalgan. Jondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo‘lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Masalan, o‘zbek xalq dostonlarida Chambil eli iborasi ko‘p uchraydi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bolishi bilan Vatan tushunchasi elat, ya’ni xalq va davlat tushunchalarini qamrab olgan.

Vatan ostonadan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan boshlanadi. SHuning uchun u yashab, nafas olib turgan xonadonga, ulg‘ayib voyaga etishishida muhtasham va qudratli makon bo‘lgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqat abadiy bo‘lmog‘i zarur. Har bir insonning Vatanga bo‘lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi. O‘z ota-onasi, avlod-ajdodlari, ularning an’analari, urf-odatlari, kasb-korini sevmaydigan farzand o‘zgalarni ham sevmaydi. SHuningdeq millati, xalqi adabiyoti, san’ati, dini va madaniyatidan g‘ururlanib, o‘zi o‘sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog‘i qadrini anglab etmaydi.

Vatanga muhabbat - vatanparvarlikning asl mohiyatidir. Vatanni yurakdan his qilmoq va sevmoq kerak. Buning uchun sog‘lom, aqlli va o‘tyurak boimoq lozim. Ingliz shoiri J. Bayron: «Kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi»,- degan edi.

Vatanni qalbdan chuqur his qilish uchun ham, xalqning vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatish uchun ham Vatan hur, mustaqil bo‘lishi shart hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilingach, Vatanning qadri ortdi, xalqimizning qadri tiklandi. Shu bois mustaqillikning qadriga etishimiz, uni e’zozlashimiz, mustahkamlab borishimiz kerak.

Vatan mehrini, Vatan tuyg‘usini, uning mo‘tabarligi-yu ulug‘vorligini so‘z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson Vatan uchun hamma narsani, hatto jonini

ham ayamaydi. Mavlono Fuzuliyning: «Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo‘lur edim», - degan so‘zlari Vatanni his qilish zaruriyatini anglatadi.

Vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlarimiz ongiga singdirish, avvalombor oiladan boshlanadi. Ona Vatan, Vatanga muhabbat, Vatan tuyg‘usi kabi ilk tushunchalar ham avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati va mehri orqali amalga oshadi. Inson o‘zligini anglashi, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar ortadi. Vatanparvarlik g‘oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta’lim va tarbiyaning turli shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o‘z xissasini qo‘shish, uning haqiqiy jonkuyari bo‘lish, Vatan oldidagi mas’uliyatli, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga obro‘ qo‘shish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lish demakdir.

Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy ma’naviy-ahloqiy fazilat sanalib, uning mazmuni Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo‘lishdan, yurtning o‘tmishi va hoziri uchun fahrlanishdan, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Vatanparvarlik ota bobolardan me’ros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o‘z ona Vatanini dushmanlardan, yot va begona g‘oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi.

O‘zbek xalqining faxri va g‘ururi hisoblanmish SHiroq, To‘maris, Muqanna, Spitamen, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi vatanga e’tiqodli, vatan uchun jonini ayamagan insonlarning tarixiy xotirasini o‘rganish va vatanparvarlik maktabi tarbiyasidan o‘rnak olishni yo‘lga qo‘yish bugungi davr talabidir.

Buyuk Vatandoshlarimiz jasorat, mardlik timsoli sifatida o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va iftixoriga aylanganlar. Ularning bosib o‘tgan yo‘li bugungi yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, milliy yuksalish g‘oyalarini targ‘ib qilish, Vatan tinchligi va osoyishtaligi uchun o‘zini fido qilish uchun ibrat bo‘la oladi.

Tarixdan ma’lumki, millatlarning xalqlarning yuksalishi ularning ma’naviy, g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g‘oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan. Milliy g‘oya ularni Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan.

Globallashuv jadal sur’atlarda ro‘y berayotgan, xalqaro rqobat kuchayayotgan, G‘arb ommaviy madaniyati tez tarqalayotgan hozirgi sharoitda milliy o‘zligimizni, ma’naviy-madaniy merosimizni asrab-avaylash, rivojlantirish masalasi dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bugungi kunda G‘arbning o‘zida ommavmy madaniyatga nisbatan ijobiy aholashdan tortib, mutlaq qoralashgacha bo‘lgan turlicha qarashlar yuzaga kelgan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday degan edi: “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egshsentrik g‘oyalarni tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga somay qo‘ymaydi. Insoniyat tarixida madaniyat ikki turga: elitar (yuksak) va ommaviy (tuban) madaniyatga bo‘lish an’anasi yuzaga keldi.

Muallif A.Erkayev ommaviy madaniyatning ijtimoiy-ma’naviy loqaydlik qatorida milliy an’analar, milliy madaniyat, yanada kengrq qarlsa, milliy manfaatlarga nisbatan befarqlikni shakllantirishini, natijada vatanparvarlik, faol fuqarolik, xalqchillik va milliy o‘zlik tuyg‘ulari kishida zaiflashib ketishini, u o‘zini, nari borsa, dunyo fuqarosi, butun insoniyat farzandi deb hisoblay boshlaydi, amalda ko‘pincha bunday o‘y-fikrlar ham unga yot bo‘lishini, bunday inson endi infantil, konformist, befarq va loqayd, shijoati, tashabbusi so‘ngan bo‘lishi, o‘zining ijtimoiy holatini o‘zgartirishga intilmasligi, oldiga yuksak maqsadlarni qo‘ya olmasligini ta’kidlaydi[5].

Mustaqillikni mustahkamlash sharoitida yoshlarni ma’naviy jihatdan etukligini ta’minlashga asosiy e’tibor qaratildi, chunki, jamiyatda fuqarolar ma’naviy etuklik bo‘lmaguncha, yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunmaguncha, amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlarni siyosiy, huquqiy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyoj darajasida anglamaguncha, jiddiy o‘zgarishlarni, tub yangiliklarni kutish mumkin emasligi umumta’lim maktablarida fuqarolik tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oishrish zarurligini anglatadi[6].

“Ommaviy madaniyat” XXI asrda o‘quvchi-yoshlar g‘ar tomomnlama rivojlanishiga, jumladan, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to‘qinlik qiluvchi omillardan biriga aylandi.

Buning uchun har bir o‘quvchi-yoshlarning, har bir fuqaroning taqdiri shu davlat va jamiyat taraqqiyotiga, kelajagiga bog‘liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg‘uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning eng muhim vazifasiga aylanishi zarur.

Bugungi kunda fuqarolik faolligi jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo‘ladi.

2-jadval

JAMIYAT SOHALARI	JAMIYAT SOHALARDA FUQARO FAOLLIGINING NAMOYON BO‘LISHI
Iqtisodiy soha	Iqtisodiy sohada fuqarolik faolligi mulkdorlik huquqi va tadbirkorlik erkinligini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, mehnatga doir nizolarni hal qilish, o‘zaro foydali bitimlar tuzish va sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish, tovarlar ishlab chiqarish va tovarlarni taqsimlashga nisbatan davlat monopoliyasini cheklash tarzida amalga oshiriladi.
Siyosiy soha	Siyosiy sohadagi fuqaroviy faollik davlatni boshqarishda fuqarolar bevosita va vakillik demokratiyasi mexanizmlari

	(saylov, referendum va boshqalar), ixtiyoriy ijtimoiy-siyosiy birlashmalar va uyushmalar faoliyati, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishni rivojlantirish ko‘rinishida amal qiladi.
Ma’naviy-mafkuraviy soha	Fuqarolarning ma’rifiy, ilmiy va badiiy faoliyatining muqobil shakllarida namoyon bo‘ladi.
Ijtimoiy rivojlanish sohasi	Fuqarolarning sohasida sog‘lom turmush tarzi, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, oilani mustahkamlash, onalik va bolalik huquqini himoya qilish, qariyalarga madad berishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Yosh avlodda o‘z millatidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish, Vatanning muqaddasligini chinakam iymon-e’tiqodga aylantirish buyuk mamlakatimizning buguni, ertasi va istiqbolini porloq bo‘lishi, jahonhamjamiyatida o‘z o‘rni va nufuzini mustahkam egallashiga kafil bo‘la oladi.

Vatanparvarlik aniq bir hayotiy muhitda, ijtimoiy zaminda va mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Uning to‘la va to‘g‘ri shakllanishi, yuksak namunalarni ko‘rsatish uchun ham xalq va Vatan mustaqil bo‘lishi lozim. Ana shu sababdan, mustaqillikni e’zozlashimiz, qadriyaga etishimiz, uni qadam-baqadam mustahkamlab borishimiz zarur. Shu yo‘ldagi oliyjanob fazilat va ezgu intilishlar bugungi kunda haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkunki umumta’lim maktab o‘quvchilarini fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash Vatan tuyg‘usini shakllantirishdan boshlanadi. Insondagi eng oliy tuyg‘u - Vatan tuyg‘usidir. O‘zi tug‘ilib-o‘sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o‘zga yurt tabiatidan o‘z yurti tabiatichalik zavq ola olmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo‘ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go‘zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg‘u namoyon bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilarida Vatan tuyg‘usini, vatanparvarlikni tarbiyalashda uning o‘tmishi, madaniyati, tarixi, jahon miqyosidagi mavqei, ajdodlarimizning jahon fani

va madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish umumta’lim maktablarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy markazida bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-sonli Qonuni

2. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G. va boshqalar. Pedagogika. – T.: «Fan nashriyoti», 2006 y. -56-b. (282 bet).

3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahriri ostida /. –T.: «Sharq», 2000. – 34 b.

4. Mustaqillik: izohli-ommabop lug‘at. Toshkent, “Sharq”, 1998, 33-bet.

5. Erkayev A. Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya. –T.: «Ma’naviyat», 2015 y. 17-b.

6. Jo‘rayev N. G‘oyaviy immunitet yoki ma’naviy xaloskorlik tuyg‘usi. – T.: «O‘zbekiston», 2001 y. 21-b. (-64-b).